©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SAUDIYA ARABISTONINING ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA TA’SIRI

Ostonova Shahzoda
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) faoliyatida Saudiya Arabistonining tutgan o‘rni va ko‘rsatgan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Saudiya Arabistonining IHT doirasidagi institutsional, siyosiy, iqtisodiy va ramziy mavqeini aniqlash hamda ushbu omillarning tashkilot faoliyatiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Islom hamkorlik tashkiloti, Jidda, islomofobiya, diniy legitimlik, Islom taraqqiyot banki, donor davlat, deklarativ siyosat, “Nigoh-2030”

KIRISh XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi xalqaro munosabatlar tizimiga tub o‘zgarishlar olib keldi. Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlik kuchayib, xalqaro tashkilotlarning roli sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy davrda xalqaro tashkilotlar nafaqat hamkorlik platformasi, balki mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, gumanitar inqirozlarga javob qaytarish hamda kollektiv manfaatlarni himoya qilishning muhim institutsional mexanizmiga aylandi. Shunday xalqaro tuzilmalardan biri bo‘lgan Islom hamkorlik tashkiloti musulmon davlatlarning eng yirik hukumatlararo tashkiloti hisoblanadi. Mazkur tashkilot 1969-yilda Rabot shahrida bo‘lib o‘tgan Islom sammiti natijasida tashkil topgan bo‘lib, bugungi kunda 57 a’zo davlatni birlashtiradi[1]. IHT o‘zini “musulmon dunyosining kollektiv ovozi” sifatida namoyon etadi va a’zo davlatlar manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilish, birdamlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan[2]. Tashkilotning zamonaviy xalqaro tizimdagi o‘rni bir necha jihatlar bilan belgilanadi. Birinchidan, tashkilot musulmon mamlakatlar o‘rtasida siyosiy koordinatsiyani ta’minlashga intiladi. Ikkinchidan, iqtisodiy integratsiya va savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, Falastin masalasi, islomofobiya(ya’ni Islom dini, musulmonlar va musulmon jamiyatlariga nisbatan shakllangan asossiz qo‘rquv, salbiy stereotip, kamsituvchi munosabat yoki dushmanona siyosiy-ijtimoiy qarashlar majmui), qochqinlar muammosi va gumanitar inqirozlar kabi dolzarb masalalarda umumiy pozitsiya shakllantiradi[3].

Mazkur tashkilot faoliyatida Saudiya Arabistoni alohida o‘rin egallaydi. Avvalo, IHTning bosh qarorgohi Jidda shahrida joylashgan bo‘lib, bu holat Saudiya Arabistonining tashkilotdagi institutsional markaziy mavqeini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni iqtisodiy salohiyati, energetik resurslari, diplomatik aloqalari va musulmonlar uchun muqaddas bo‘lgan Makka hamda Madina shaharlariga egaligi sababli IHT doirasida katta siyosiy va ramziy nufuzga ega. Saudiya Arabistonining IHTdagi roli ko‘p qirrali xarakterli bo‘lib, bir tomondan, u tashkilotning moliyaviy va tashkiliy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy davlatlardan biridir, xususan, Islom Taraqqiyot Banki kapitalidagi eng

[1] Organisation of Islamic Cooperation. (n.d.). History of the Organisation of Islamic Cooperation. Retrieved from https://www.oic-oci.org

[2] Organisation of Islamic Cooperation. (2018). Charter of the Organisation of Islamic Cooperation. Jeddah: OIC General Secretariat. Retrieved from https://www.oic-oci.org

[3] Ali, T. (2023). Emerging role of the Organization of Islamic Cooperation in world politics. Cogent Social Sciences, 9(1), 2202052. Retrieved from https://www.tandfonline.com

yirik ulush Saudiya Arabistoniga tegishlidir[4]. Ikkinchi tomondan, qirollik IHT sammitlari va vazirlar yig‘ilishlarida muhim tashabbuskor davlat sifatida faol qatnashadi. Uchinchidan, Saudiya Arabistoni musulmon dunyosidagi diniy legitimlik manbai sifatida ko‘plab qarorlarning siyosiy qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Saudiya Arabistonining kuchli ta’siri ayrim hollarda IHT ichidagi kuchlar muvozanati masalasini ham yuzaga keltiradi. Ayrim tadqiqotchilar IHTni Saudiya tashqi siyosatining qo‘shimcha diplomatik platformasi sifatida baholasa, boshqalar uni musulmon davlatlar o‘rtasidagi zarur kollektiv institut sifatida ko‘radilar. Shu bois Saudiya Arabistonining IHTdagi o‘rnini xolis va ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Saudiya Arabistonining Islom hamkorlik tashkiloti faoliyatidagi o‘rni va ta’siri masalasi xalqaro munosabatlar nazariyasi, mintaqaviy siyosat va xalqaro institutlar faoliyati kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur masalada Saudiya Arabistonining alohida davlat sifatidagi siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning ta’siri namoyon bo‘layotgan tashkilotning ichki tabiati, a’zo davlatlar o‘rtasidagi muvozanat va qaror qabul qilish mexanizmlarini ham inobatga olish lozim. Shu sababli mavzuga oid ilmiy adabiyotlar asosan ikki yo‘nalishda shakllangan: birinchisi Saudiya Arabistonining IHTdagi siyosiy mavqeini baholashga, ikkinchisi esa IHTning xalqaro institut sifatidagi funksional xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Bu borada Saudiya Arabistonining tashkilotdagi ustunligi bir necha omillar bilan izohlovchi Shahram Akbarzoda va Zohid Shahob Ahmadning "Saudiya Arabistoni gegemonligining Islom hamkorlik tashkilotiga (IHT) ta’siri" nomli ilmiy ishi e’tiborga molik bo‘lib, Saudiya Arabistonining IHTdagi mavqei “gegemonlik” tushunchasi orqali talqin qilingan. Saudiya Arabistonining tashkilotdagi ustunligi qirollikning katta moliyaviy resurslari, ko‘plab musulmon davlatlar bilan keng ikki tomonlama diplomatik aloqalari hamda IHTning kuchli ijro mexanizmlariga ega emasligi ta’kidlangan[5]. Mualliflar Saudiya Arabistonining tashkilot ichidagi roli faqat diniy maqom yoki tarixiy nufuzga emas, balki amaliy siyosiy vositalarga ham tayanganini qayd etadilar.

Shuningdek, maqolada Saudiya Arabistonining IHTdagi faoliyati ayrim hollarda tashkilotning umumiy kun tartibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ilgari suriladi. Mazkur qarash Saudiya Arabistonining IHTdagi o‘rnini baholashda bir yoqlama xulosalardan saqlanish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki kuchli donor va tashabbuskor davlat sifatida Saudiya Arabistoni tashkilot faoliyatiga dinamizm olib kirishi mumkin, biroq bir davlat ta’sirining ortishi boshqa a’zo davlatlar manfaatlari bilan bog‘liq muvozanat masalasini ham yuzaga chiqaradi. Shu bois Saudiya Arabistonining IHTdagi mavqei ko‘proq resurslar va siyosiy imkoniyatlar orqali shakllanayotgan ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘lsa, Go‘khan Bacikning “Islom hamkorlik tashkilotining (IHT) genezisi, tarixi va faoliyati: rasmiy-institutsional tahlil” nomli maqolasida esa IHTning o‘zi rasmiy-institutsional nuqtai nazardan tahlil qilingan. Muallif tashkilotning shakllanish tarixi, nizomiy asoslari, a’zolik mezonlari, qaror qabul qilish tartibi va ichki funksional mexanizmlariga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur tadqiqotda IHT faqat diniy birdamlik timsoli emas, balki turli siyosiy manfaatlarga ega

[4] Islamic Development Bank. (n.d.). Member countries shareholding report. Jeddah: IsDB. Retrieved from https://www.isdb.org

[5] Akbarzadeh, S., & Ahmed, Z. S. (2018). Impacts of Saudi hegemony on the Organization of Islamic Cooperation (OIC). International Journal of Politics, Culture, and Society, 31, 297–311. https://doi.org/10.1007/s10767-017-9270-x

bo‘lgan davlatlarni bir platformada muvofiqlashtirishga urinayotgan ko‘p tomonlama xalqaro institut sifatida tavsiflangan[6].

Ushbu maqolada IHTning samaradorligi ko‘p jihatdan uning institutsional imkoniyatlari bilan bog‘liqligi qayd etiladi. Qarorlar konsensus asosida qabul qilinishi, a’zo davlatlar siyosiy pozitsiyalarining turlicha bo‘lishi hamda ijro mexanizmlarining cheklanganligi tashkilot faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatilgan. Shu nuqtai nazardan, Saudiya Arabistonining IHTdagi roli ham tashkilotning ichki mexanizmlaridan ajralgan holda baholanmasligi lozim. Chunki har qanday davlatning xalqaro tashkilotdagi ta’siri o‘sha tashkilotning siyosiy va institutsional muhitida namoyon bo‘ladi. Mazkur ikki xorijiy tadqiqotda turli yondashuvlar ilgari surilgan bo‘lsa-da, ular bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy qarashlarni aks ettiradi. Natijada Saudiya Arabistonining IHTdagi mavqeini tushunishda ikki omil — davlat resurslari va institutsional sharoit — o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi ko‘rinadi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda Saudiya Arabistonining mavqei boshqa yirik a’zo davlatlar bilan qiyosiy ravishda ham tilga olinadi. Turkiya diplomatik faolligi, Pokiston strategik salohiyati va Indoneziya demografik imkoniyatlari bilan ajralib tursa-da, Saudiya Arabistoniga oid tadqiqotlarda uning moliyaviy qudrati, diniy legitimligi va tashkilot bilan yaqin institutsional aloqalari alohida omil sifatida ko‘rsatiladi.

NATIJALAR Saudiya Arabistoni IHT doirasida faqat a’zo davlat sifatida emas, balki tashkilot faoliyatining shakllanishi, davomiyligi va amaliy yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim markaziy aktor sifatidagi roli, avvalo, tashkilotning institutsional joylashuvi, Saudiya Arabistonining moliyaviy salohiyati, musulmon dunyosidagi diniy nufuzi hamda Yaqin Sharq siyosatidagi faol diplomatik mavqei orqali izohlanadi. Saudiya Arabistonining IHTdagi o‘rni eng avvalo institutsional asosga ega. Tashkilot Bosh kotibiyatining Jidda shahrida joylashgani Saudiya Arabistoniga IHT faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lish imkonini beradi. Bosh qarorgohning aynan Saudiya hududida joylashuvi nafaqat geografik qulaylik, balki siyosiy ramz sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Bu holat Saudiya Arabistonini tashkilotning tashkiliy markazi bilan uzviy bog‘laydi va uning IHT ichidagi mavqeini mustahkamlaydi. Bunday institutsional yaqinlik Saudiya diplomatiyasiga tashkilot faoliyatini muntazam kuzatish, sammitlar va yig‘ilishlar jarayonida faol ishtirok etish hamda muhim masalalar bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish imkonini beradi[7]. Shu sababli Jidda shahri IHT uchun oddiy ma’muriy markaz emas, balki musulmon davlatlar diplomatiyasi jamlanadigan muhim siyosiy maydon sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, Saudiya Arabistonining moliyaviy imkoniyatlari bilan bog‘liqdir. IHT faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uning iqtisodiy institutlari, gumanitar dasturlari va rivojlanish loyihalarining moliyalashtirilishiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, Saudiya Arabistoni tashkilot tizimida muhim donor davlat(ya’ni boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar yoki gumanitar-rivojlanish dasturlariga moliyaviy yordam, grant, imtiyozli kredit, texnik ko‘mak yoki investitsion resurslar ajratish orqali ta’sir ko‘rsatuvchi davlat) sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, Islom taraqqiyot banki faoliyatida Saudiya Arabistonining ulushi katta ahamiyatga ega. Ushbu bank IHT tizimidagi eng muhim iqtisodiy institutlardan biri bo‘lib,

[6] Bacik, G. (2011). The genesis, history, and functioning of the Organization of Islamic Cooperation (OIC): A formal-institutional analysis. Journal of Muslim Minority Affairs, 31(4), 594–614. https://doi.org/10.1080/13602004.2011.630864

[7] Ali, T. (2023). Emerging role of the Organization of Islamic Cooperation in world politics. Cogent Social Sciences, 9(1), Article 2202052. https://doi.org/10.1080/23311886.2023.2202052

musulmon davlatlarda infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash, energetika va ijtimoiy rivojlanish loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Saudiya Arabistonining mazkur moliyaviy tuzilmadagi yuqori ulushi uning IHT iqtisodiy kun tartibiga ta’sirini oshiradi. Bu esa qirollikka nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy vositalar orqali ham musulmon davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash imkonini beradi[8]. Shuningdek, Saudiya Arabistonining IHT doirasidagi siyosiy-diplomatik faolligi bilan bog‘lik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Saudiya Arabistoni tashkilot yig‘ilishlari va sammitlarida Falastin masalasi, Quddus maqomi, Islomofobiyaga qarshi kurash, gumanitar inqirozlar, mintaqaviy xavfsizlik va musulmon jamoalarning xalqaro huquqlarini himoya qilish kabi masalalarda faol pozitsiya bildiradi. Ayniqsa, Yaqin Sharqda yuzaga kelgan inqirozlar bo‘yicha IHT doirasidagi favqulodda yig‘ilishlarda Saudiya Arabistonining roli sezilarli bo‘lib kelgan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, IHT Saudiya Arabistoni uchun faqat diniy birdamlik platformasi emas, balki diplomatik tashabbuslarni ilgari surish va musulmon davlatlarning umumiy pozitsiyasini shakllantirish vositasi hamdir. Shu jihatdan Saudiya Arabistoni IHT orqali o‘zining mintaqaviy siyosiy mavqeini mustahkamlashga intiladi. Saudiya Arabistonining IHTdagi ta’sirini izohlovchi yana bir asosiy omil uning diniy-ramziy nufuzidir. Makka va Madina shaharlarining Saudiya Arabistonida joylashgani qirollikka musulmon dunyosida alohida ma’naviy maqom beradi[9]. Har yili millionlab musulmonlarning haj va umra ziyoratlari orqali Saudiya Arabistoni butun islom olami bilan bevosita diniy va madaniy aloqaga kirishadi. Bu omil IHT doirasida ham o‘z aksini topadi. Chunki IHT musulmon davlatlarning kollektiv manfaatlarini ifodalovchi tashkilot sifatida diniy ramzlardan butunlay ajralgan holda faoliyat yurita olmaydi. Saudiya Arabistoni esa muqaddas shaharlar egasi sifatida ushbu ramziy maydonda kuchli pozitsiyaga ega[10]. Shu sababli uning IHTdagi ta’siri faqat moddiy resurslar yoki diplomatik tashabbuslar bilan emas, balki diniy legitimlik bilan ham mustahkamlanadi.

Qolaversa, Saudiya Arabistonining IHTdagi mavqei boshqa yirik a’zo davlatlar bilan solishtirganda ko‘p manbali ta’sirga asoslanadi. Masalan, Turkiya tashkilot doirasida diplomatik faolligi va tarixiy-siyosiy tajribasi bilan ajralib tursa, Eron o‘zining geosiyosiy salohiyati va mintaqaviy ta’siri orqali muhim o‘rin egallaydi. Pokiston esa demografik va harbiy salohiyati bilan IHT doirasida e’tiborga molik davlat hisoblanadi. Biroq Saudiya Arabistoni mazkur davlatlardan farqli ravishda bir vaqtning o‘zida institutsional markaz, moliyaviy donor, diniy legitimlik manbai va diplomatik tashabbuskor sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu ko‘p qatlamli ta’sir Saudiya Arabistonining IHTdagi mavqeini boshqa a’zo davlatlarga nisbatan alohida darajaga olib chiqadi. Lekin Saudiya Arabistonining IHTdagi ta’siri mutlaq emasligini ham ko‘rsatadi. Tashkilot 57 a’zo davlatni birlashtirgani sababli unda turli siyosiy manfaatlar, mintaqaviy pozitsiyalar va ideologik qarashlar mavjud. Bu esa qaror qabul qilish jarayonlarini murakkablashtiradi. Saudiya Arabistoni IHT kun tartibiga sezilarli ta’sir ko‘rsata olsa-da, barcha qarorlarni yakka tartibda belgilay olmaydi. Tashkilot ichida Turkiya, Eron, Pokiston, Indoneziya, Misr kabi yirik davlatlarning ham o‘z pozitsiyasi mavjud. Shu bois IHT doirasidagi qarorlar ko‘pincha muvozanat, muzokara va konsensus asosida shakllanadi. Bu holat Saudiya Arabistonining ta’sirini kuchli, ammo

[8] Hashmat, S. A. (2014). The OIC’s potential, capabilities and constraints for conflict resolution. Strategic Studies, 34(2–3), 1–28.

[9] Ahmed, Z. S. (2019). Sectarianism and the Organisation of Islamic Cooperation: Sunni–Shia interstate tensions in the Muslim world. Global Discourse, 9(3), 506–523. https://doi.org/10.1080/23269995.2019.1643779

[10] Hossain, I. (2012). The Organization of Islamic Conference (OIC). Asian Survey, 52(2), 287–314.

cheklangan va ko‘p tomonlama diplomatik muhitga bog‘liq ta’sir sifatida baholash imkonini beradi. Tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, Saudiya Arabistonining IHTdagi roli vaqt o‘tishi bilan bosqichma-bosqich kengayib borgan. Tashkilotning dastlabki shakllanish davrida Saudiya Arabistonining roli asosan diniy legitimlik va tashkiliy mezbonlik bilan bog‘liq bo‘lgan. Keyingi bosqichlarda, ayniqsa neft daromadlarining ortishi va iqtisodiy salohiyatning kuchayishi natijasida, qirollikning moliyaviy ta’siri oshdi. XXI asrga kelib esa Saudiya Arabistonining IHTdagi roli geosiyosiy va diplomatik mazmun bilan yanada boyidi. Mintaqaviy mojarolar, global xavfsizlik muammolari, Islomofobiya va gumanitar inqirozlar Saudiya Arabistonini IHT doirasida yanada faol tashabbuskor bo‘lishga undadi. Umuman olganda, Saudiya Arabistonining IHTdagi o‘rni to‘rtta asosiy omil — institutsional yaqinlik, moliyaviy salohiyat, diplomatik faollik va diniy legitimlik uyg‘unligida shakllanishini ko‘rsatadi. Ushbu omillar bir-birini to‘ldiradi va Saudiya Arabistonini tashkilot faoliyatida muhim markaziy davlatga aylantiradi. Biroq bu markaziylik IHTning kollektiv tabiatini inkor etmaydi. Aksincha, Saudiya Arabistoni tashkilotda kuchli aktor bo‘lsa-da, IHTning samarali ishlashi barcha a’zo davlatlarning hamkorligi, manfaatlar muvozanati va qarorlarning amaliy ijrosiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Saudiya Arabistonining Islom hamkorlik tashkiloti doirasidagi o‘rni zamonaviy musulmon dunyosidagi kuchlar muvozanati, institutsional boshqaruv va mintaqaviy liderlik masalalarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala oddiy a’zolik yoki moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. Saudiya Arabistoni IHT faoliyatida tarixiy nufuz, iqtisodiy salohiyat, diplomatik faollik va diniy legitimlikni birlashtirgan davlat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois uning tashkilotdagi mavqeini baholash IHTning ichki mexanizmlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari bilan bevosita bog‘liqdir.

IHTning samaradorligi ko‘p jihatdan kuchli a’zo davlatlarning tashabbuskorligiga tayansa-da, tashkilotning uzoq muddatli barqarorligi faqat resurslarga emas, balki muvozanatli boshqaruvga tayanadi. Saudiya Arabistonining moliyaviy va diplomatik imkoniyatlari IHTga siyosiy og‘irlik beradi, xalqaro maydondagi ko‘rinuvchanligini oshiradi va ayrim muammolar bo‘yicha tezkor tashabbus ko‘rsatish imkonini yaratadi. Ayniqsa, gumanitar inqirozlar, Falastin masalasi, musulmon jamoalar huquqlari yoki favqulodda siyosiy vaziyatlarda Saudiya Arabistonining faol ishtiroki tashkilotning passiv tuzilma bo‘lib qolmasligiga xizmat qiladi. Biroq xalqaro tashkilotlarning tabiati shuni ko‘rsatadiki, haddan tashqari markazlashgan ta’sir ko‘p tomonlama institutlar ichida ehtiyotkor munosabatlarni yuzaga keltiradi. IHT tarkibiga kiruvchi davlatlarning siyosiy tizimlari, tashqi siyosiy yo‘nalishlari, iqtisodiy manfaatlari va mintaqaviy ustuvorliklari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli tashkilot ichida bir davlatning kuchli mavqei ba’zan boshqa a’zolarning faol ishtirokini susaytirishi yoki ayrim masalalarda qarama-qarshi pozitsiyalarni kuchaytirishi mumkin. Natijada IHTning kollektiv tabiati saqlanib qolishi uchun yetakchi davlatlarning resurslari bilan barcha a’zolarning teng siyosiy ishtiroki o‘rtasida muvozanat zarur bo‘ladi[11]. Saudiya Arabistonining IHTdagi ta’siri ko‘pincha diniy legitimlik bilan ham bog‘liq. Makka va Madina kabi muqaddas shaharlarning ushbu davlat hududida joylashgani qirollikka musulmon dunyosida alohida ramziy maqom beradi. Bunday ramziy salohiyat xalqaro maydonda muhim siyosiy resursga aylanishi mumkin. Chunki diniy markazga egalik ko‘plab musulmon jamiyatlarda ma’naviy ishonch va tarixiy nufuz manbai hisoblanadi. Shu

[11] Sharqieh, I. (2012). Can the Organization of Islamic Cooperation (OIC) resolve conflicts? Peace and Conflict Studies, 19(2), Article 3. https://doi.org/10.46743/1082-7307/2012.1139

bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlarda diniy nufuzning o‘zi yetarli emas. U samarali diplomatiya, iqtisodiy modernizatsiya va konstruktiv tashqi siyosat bilan qo‘llab-quvvatlangandagina real siyosiy ta’sirga aylanadi[12]. IHTning asosiy muammolaridan biri deklarativ siyosat bilan amaliy natijalar o‘rtasidagi tafovutdir. Tashkilot ko‘plab global va mintaqaviy masalalar bo‘yicha muntazam bayonotlar beradi, birdamlikka chaqiradi va a’zo davlatlar manfaatlarini himoya qilishini ta’kidlaydi. Biroq bunday siyosiy bayonotlarni aniq dasturlar, monitoring mexanizmlari va ijro institutlari bilan mustahkamlash har doim ham bir xil darajada muvaffaqiyatli bo‘lmaydi. Bu holat IHTning ko‘p tomonlama tabiatidan, a’zolar o‘rtasidagi qarashlar xilma-xilligidan hamda majburiy ijro vositalarining cheklanganligidan kelib chiqadi[13]. Shu nuqtai nazardan Saudiya Arabistonining resurslari tashkilot uchun muhim imkoniyat yaratadi, biroq bu resurslar mustaqil institutsional mexanizmlar bilan uyg‘unlashmasa, kutilgan samarali natijani to‘liq bera olmaydi.

Tashkilot ichidagi liderlik masalasi ham muhim muhokama mavzusidir. Musulmon dunyosida faqat bitta markaz mavjud emas. Turkiya siyosiy-diplomatik faolligi, Pokiston harbiy-demografik salohiyati, Indoneziya demografik va iqtisodiy imkoniyatlari, Eron geosiyosiy ta’siri bilan ajralib turadi. Shu sababli IHT yagona davlat boshqaradigan tuzilma emas, balki turli markazlar manfaatlari kesishadigan murakkab diplomatik maydondir. Saudiya Arabistonining ustunligi ko‘proq resurslar va tarixiy nufuzda namoyon bo‘lsa, boshqa davlatlarning ta’siri boshqa ko‘rinishlarda ifodalanadi. Bu esa IHTda doimiy muvozanat siyosati zarurligini anglatadi. Saudiya Arabistonining IHTdagi roli kelajakda yangi mazmun kasb etishi mumkin. “Nigoh-2030” doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsion siyosat, texnologik modernizatsiya va xalqaro imijni yangilash jarayonlari qirollikning tashqi siyosiy salohiyatini kengaytirmoqda. Agar ushbu o‘zgarishlar IHT doirasida savdo integratsiyasi, ilm-fan hamkorligi, ta’lim almashinuvi, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilsa, Saudiya Arabistonining tashkilotdagi roli an’anaviy siyosiy-diniy yetakchilikdan amaliy rivojlanish yetakchiligiga o‘tishi mumkin. Bu esa IHTning global maydondagi obro‘sini oshirishga xizmat qiladi[14]. Shuningdek, IHTning tinchlik va xavfsizlik yo‘nalishidagi salohiyati ham Saudiya Arabistoni mavqeiga bog‘liq masalalardan biridir. Tashkilot mojarolarni yumshatish, vositachilik tashabbuslari va gumanitar diplomatiya orqali samaraliroq ishlashi mumkin. Buning uchun siyosiy irodadan tashqari, barqaror moliyalashtirish, tezkor javob mexanizmlari, tahliliy markazlar va mintaqaviy hamkorlik vositalari zarur. Saudiya Arabistoni bunday infratuzilmalarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo‘lgan kam sonli davlatlardan biridir. Shu sababli uning roli nafaqat siyosiy, balki institutsional modernizatsiya nuqtai nazaridan ham muhimdir[15].

Umuman olganda, Saudiya Arabistonining IHTdagi mavqei tashkilot uchun strategik resurs ham, siyosiy sinov ham hisoblanadi. Resurs shundaki, qirollik IHTga moliyaviy

---

[12] Negrón-Gonzales, M. (2015). Organization of Islamic Cooperation (OIC). In International organizations and the implementation of the responsibility to protect: The humanitarian crisis in Syria (Chapter 6). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781315709642-6

[13] Taylor & Francis Organisation of Islamic Cooperation. (2016). OIC-2025: Programme of action. https://www.sesric.org/files/oic-2025-programme-of-action.pdf

[14] Volkdal, C. P. (2025). Reforming the OIC’s role in peace and security: Institutional gaps and strategic pathways [Policy brief]. Copenhagen Business School. https://research.cbs.dk/files/113691162/POLICY_BRIEF_Reforming_the_OIC_s_Role_in_Peace_and_Security_-_Institutional_Gaps_and_Strategic_Pathways.pdf

[15] Chaziza, M. (2025). Saudi Arabia’s niche diplomacy: A middle power’s strategy for global influence. Social Sciences, 14(2), Article 65. https://doi.org/10.3390/socsci14020065

barqarorlik, diplomatik tashabbuskorlik va ramziy legitimlik olib kiradi. Sinov shundaki, ushbu resurslar boshqa a’zolar manfaatlarini cheklamagan holda, ko‘p tomonlama boshqaruv tamoyillari asosida ishlatilishi lozim. Tashkilotning uzoq muddatli muvaffaqiyati Saudiya Arabistonining kuchi bilan emas, balki bu kuchning kollektiv manfaatlarga qanchalik samarali yo‘naltirilishi bilan belgilanadi.

XULOSA Bugungi xalqaro tizimda Islom hamkorlik tashkilotining haqiqiy ahamiyati uning nechta a’zoga egaligida emas, balki musulmon dunyosining tarqoq siyosiy irodasini yagona strategik yo‘nalishga aylantira olish qobiliyatidadir. Shu nuqtai nazardan Saudiya Arabistonining tashkilotdagi o‘rni tayyor kuch markazi sifatida emas, balki mas’uliyat markazi sifatida baholanishi lozim. Katta imkoniyatga ega davlatning vazifasi ta’sir ko‘rsatish emas, balki umumiy manfaatlarni birlashtirishdir.

Biroq tashkilot faoliyatining samaradorligi faqat Saudiya Arabistonining imkoniyatlariga bog‘liq emas. IHTning kelajakdagi muvaffaqiyati a’zo davlatlar o‘rtasidagi siyosiy muvozanat, o‘zaro ishonch, iqtisodiy hamkorlik va qarorlarning amaliy ijrosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Saudiya Arabistoni ushbu jarayonda yetakchi davlat sifatida resurs va tashabbus taqdim eta olsa-da, tashkilotning kollektiv tabiati saqlanib qolishi zarur. Kelgusida IHTning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish uchun uni deklarativ platformadan amaliy hamkorlik institutiga aylantirish muhimdir. Bunda Saudiya Arabistonining moliyaviy, diplomatik va tashkiliy salohiyatidan umumiy musulmon dunyosi manfaatlari yo‘lida samarali foydalanish tashkilot rivojining asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Organisation of Islamic Cooperation. (n.d.). History of the Organisation of Islamic Cooperation. Retrieved from https://www.oic-oci.org
2. Organisation of Islamic Cooperation. (2018). Charter of the Organisation of Islamic Cooperation. Jeddah: OIC General Secretariat. Retrieved from https://www.oic-oci.org
3. Ali, T. (2023). Emerging role of the Organization of Islamic Cooperation in world politics. Cogent Social Sciences, 9(1), 2202052. Retrieved from https://www.tandfonline.com
4. Islamic Development Bank. (n.d.). Member countries shareholding report. Jeddah: IsDB. Retrieved from https://www.isdb.org
5. Akbarzadeh, S., & Ahmed, Z. S. (2018). Impacts of Saudi hegemony on the Organization of Islamic Cooperation (OIC). International Journal of Politics, Culture, and Society, 31, 297–311. Retrieved from https://doi.org/10.1007/s10767-017-9270-x
6. Bacik, G. (2011). The genesis, history, and functioning of the Organization of Islamic Cooperation (OIC): A formal-institutional analysis. Journal of Muslim Minority Affairs, 31(4), 594–614. Retrieved from https://doi.org/10.1080/13602004.2011.630864
7. Ali, T. (2023). Emerging role of the Organization of Islamic Cooperation in world politics. Cogent Social Sciences, 9(1), Article 2202052. Retrieved from https://doi.org/10.1080/23311886.2023.2202052
8. Hashmat, S. A. (2014). The OIC’s potential, capabilities and constraints for conflict resolution. Strategic Studies, 34(2–3), 1–28.
9. Ahmed, Z. S. (2019). Sectarianism and the Organisation of Islamic Cooperation: Sunni–Shia interstate tensions in the Muslim world. Global Discourse, 9(3), 506–523. Retrieved from https://doi.org/10.1080/23269995.2019.1643779
10. Hossain, I. (2012). The Organization of Islamic Conference (OIC). Asian Survey, 52(2), 287–314.

11. Sharqieh, I. (2012). Can the Organization of Islamic Cooperation (OIC) resolve conflicts? Peace and Conflict Studies, 19(2), Article 3. Retrieved from https://doi.org/10.46743/1082-7307/2012.1139

12. Negrón-Gonzales, M. (2015). Organization of Islamic Cooperation (OIC). In International organizations and the implementation of the responsibility to protect: The humanitarian crisis in Syria (Chapter 6). Routledge. Retrieved from https://doi.org/10.4324/9781315709642-6

13. Taylor & Francis Organisation of Islamic Cooperation. (2016). OIC-2025: Programme of action. Retrieved from https://www.sesric.org/files/oic-2025-programme-of-action.pdf

14. Volkdal, C. P. (2025). Reforming the OIC’s role in peace and security: Institutional gaps and strategic pathways [Policy brief]. Copenhagen Business School. Retrieved from https://research.cbs.dk/files/113691162/POLICY_BRIEF_Reforming_the_OIC_s_Role_in_Peace_and_Security-_Institutional_Gaps_and_Strategic_Pathways.pdf

15. Chaziza, M. (2025). Saudi Arabia’s niche diplomacy: A middle power’s strategy for global influence. Social Sciences, 14(2), Article 65. Retrieved from https://doi.org/10.3390/socsci14020065